



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha va*
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
tarix fani o'qituvchisi

_____ *ning*
20__-20__-o'quv yilida 8-sinflar uchun
I chorak O'zbekiston tarixi fanidan

DARS

ISHLANMALARI

20__-20__-o‘quv yili 8-sinf O‘zbekiston tarixi fanidan I chorak
taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	Kirish	1		
2.	XIII asr boshlarida Xorazm davlatida siyosiy vaziyat	1		
3.	XIII asr boshlarida Xorazm davlatida siyosiy vaziyat	1		
4.	Xorazm va Mo‘g‘ul davlati o‘rtasidagi munosabatlar	1		
5.	Xorazm va Mo‘g‘ul davlati o‘rtasidagi munosabatlar	1		
6.	Muhammad Xorazmshohning mamlakat mudofaasiga oid tadbirlari va buning oqibati	1		
7.	Muhammad Xorazmshohning mamlakat mudofaasiga oid tadbirlari va buning oqibati	1		
8.	Muhammad Xorazmshohning mamlakat mudofaasiga oid tadbirlari va buning oqibati	1		
9.	BSB – 1. Amaliy topshiriq (50 ball)	1		
10.	Jaloliddin Manguberdi	1		
11.	Jaloliddin Manguberdi	1		
12.	Jaloliddin Manguberding Xorazmshohlar davlatini tiklash yo‘lidagi faoliyati	1		
13.	Jaloliddin Manguberding Xorazmshohlar davlatini tiklash yo‘lidagi faoliyati	1		
14.	Jaloliddin Manguberding Xorazmshohlar davlatini tiklash yo‘lidagi faoliyati	1		
15.	Chig‘atoy ulusining tashkil topishi	1		
16.	Chig‘atoy ulusining tashkil topishi	1		
17.	CHSB -1 (40 ball)	1		
18.	Chig‘atoy ulusining ikki qismga bo‘linib ketishi va ijtimoiy-iqtisodiy hayot	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Kirish

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarda mavzuga oid bilim va tushunchalar hosil qilish, qiziqishini ortirish, uzoq o'tmish, o'z xalqi va mamlakati tarixi haqida tushuncha berish, tariximizni o'rganish mobaynida, qalblarida faxr va iftixor tuyg'ularini shakllantirish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarga ajdodlarimiz barpo etgan ulkan madaniyat namunalaridan tortib, oddiy xo'jalik hayotida erishgan kichik yutuqlarigacha bo'lgan voqealar mustaqil ishlashga o'rgatish, o'quvchilar bilimlarni boyitish va yangi bilim berish, ajdodlarimizning jasorati, amalga oshirgan buyuk ishlari, qalblarida vatanparvarlik hissini uyg'otish, Vatan manfaatlarini himoya qilishga o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish, o'z Vatanimiz tarixini bilishi va boshqa mamlakatlar xalqlarining tarixi va madaniyatini hurmat bilan qarashi, berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg'otish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish; ijtimoiy moslashuvchanlik, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audiovideo yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish.

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

“O'zbekiston tarixi” darsligida IV asrdan XIII asr boshlarigacha Turon hududida kechgan tarixiy jarayonlar bilan tanishgansiz. Ajdodlarimiz barpo etgan ulkan madaniyat namunalaridan tortib, oddiy xo'jalik hayotida erishgan kichik yutuqlarigacha bo'lgan voqealar haqida tasavvur hosil qildingiz. Ota-bobolarimiz tomonidan bunyod etilgan davlatlarda g'alabali yurishlar, shu bilan birga, ulkan yo'qotishlarga boy mag'lubiyatlar ham sodir bo'lgan. Bularning barchasi bizni tarixdan xulosa chiqarishga, g'alabalarga ergashishga va mag'lubiyatdan to'g'ri sa boq olishga o'rgatadi. O'tgan o'quv yilida siz O'zbekiston tarixi fanini “Xorazmshoh-

anushteginiylar davlati” mavzusi bilan yakunlagan edingiz. Endi 8-sinfda mazkur davlat oʻrnida barpo etilgan ikkita yirik davlat tarixi bilan yaqindan tanishasiz. Bularning birinchisi XIII asrning 20-yillarida Xorazmshohlar davlatini egallab olgan Chingizxon imperiyasi va bu yerda hukm surgan uning avlodlari davlati (Chigʻatoy ulusi) boʻlsa, ikkinchisi yemirilayotgan Chigʻatoy ulusi oʻrnida XIV asrning 70-yillarida tashkil topgan Amir Temur va temuriylarning Turon davlati. Demak, mazkur darslikni oʻqish davomida mamlakatimiz va unga yondosh hududlarning XIII–XV asrlardagi tarixi bilan tanishasiz. Sizga maʼlumki, Xorazmshohlar davlati hududi Alouddin Muhammad (1200–1220) davrida nihoyatda kengaygan boʻlib, sharqda Chingizxon imperiyasi bilan chegaradosh boʻlib qolgan edi. Bu ikki imperiya oʻrtasida boshlangan raqobat va nizo keyinchalik Chingizxon boshchiligidagi moʻgʻullar tomonidan Movarounnahr, Xorazm va Xurosonning bosib olinishiga olib keldi. Bu harbiysiyosiy jarayonlarda, yurt uchun kurash yuqori pogʻonaga chiqqan pallada bir qator qahramonlar – Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi siymolar oʻzini namoyon qildi.



Mazkur darslikda siz ularning faoliyati, jasoratlari bilan atroflicha tanishasiz. Chingizxon istilosidan keyin Turonda Chigʻatoy ulusi tashkil etilgach, hududga boshqaruv va ijtimoiy hayotning yangi namunalari kirib keldi hamda mahalliy anʼanalar bilan qorishib ketdi. Ilm-fan, madaniyat qayta rivojlana boshladi. Koʻchmanchi moʻgʻul xonlari oʻtroqla shdi, islom dinini qabul qilib, mahalliy anʼana va qadriyatlarga rioya qila boshladi. Lekin boshqa sulolalarda boʻlgani kabi toj-u taxt uchun kurashlar Chigʻatoy ulusini ham ichidan yemira boshlagan. Natijada ikki katta qismga boʻlingan Chigʻatoy ulusi oʻz ichida yana bir necha mayda qismlarga boʻlinib, parchala nib ketdi. Shunday bir pallada mazkur hududlarni yagona bir bayroq ostida birlashtiradigan kuchli shaxsga, yetakchiga ehtiyoj mavjud edi. Bu ehtiyoj Amir Temur siymosini yuzaga chiqardi. Amir Temur Turon hududidagi kichik davlatlarni birlashtirib, tanazzulga uchrayotgan xoʻjalik va madaniyatni qayta tiklagan buyuk davlat arbobi va lashkarboshi sifatida tarix sahnasiga chiqdi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

Amir Temur va temuriylar (1370–1507) sulolasi tarixini chuqur bilish nima uchun zarur?

V. Oʻquvchilarni ragʻbatlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan oʻquvchilar ragʻbat kartochkalari bilan ragʻbatlantiriladi.

VI. Uyga vazifani eʼlon qilish: yangi mavzuni toʻliq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustaxkamlab kelish.

OʻIBDOʻ: _____ (imzo) _____ (sana)

Sana:			
Sinf:			

Mavzu: XIII asr boshlarida Xorazm davlatida siyosiy vaziyat

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarda mavzuga oid bilim va tushunchalar hosil qilish, qiziqishini ortirish, uzoq o'tmish, o'z xalqi va mamlakati tarixi haqida tushuncha berish, tariximizni o'rganish mobaynida, qalblarida faxr va iftixor tuyg'ularini shakllantirish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarga ajdodlarimiz barpo etgan ulkan madaniyat namunalaridan tortib, oddiy xo'jalik hayotida erishgan kichik yutuqlarigacha bo'lgan voqealar mustaqil ishlashga o'rgatish, o'quvchilar bilimlarni boyitish va yangi bilim berish, ajdodlarimizning jasorati, amalga oshirgan buyuk ishlari, qalblarida vatanparvarlik hissini uyg'otish, Vatan manfaatlarini himoya qilishga o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish, o'z Vatanimiz tarixini bilishi va boshqa mamlakatlar xalqlarining tarixi va madaniyatini hurmat bilan qarashi, berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg'otish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish, jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish;

o'z xatti-harakatini adekvat baholash.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

Jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish; o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish.

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Sulton Muhammad Xorazmshoh ajdodlaridan qolgan saltanatni ulkan imperiyaga aylantirdi. U 1212-yili Movarounnahrda qoraxoniylar boshqaruviga chek qo'ydi hamda Eronning Kirmon viloyatini, Mikronni, so'ng Balujistonni egallashga muvaffaq bo'ldi. Shundan keyin sulton xalifa nomini xutbadan chiqarib tashlashni buyurdi. U tez orada Samarqandni o'z poytaxti deb e'lon qildi. Xorazmshohning Bag'dod xalifaligi bilan kurashi natijasida xalifalikning mo'g'ullar bilan yaqinlashuvi yuz berdi. Xalifa Chingizxon saroyiga maxfiy ravishda maxsus elchi yubordi. Manbalarga ko'ra, bu elchi Chingizxon saroyiga borib, uning qabulida bo'lgan.



Muhammad Xorazmshoh 1212-yili Xuroson, Kirmon, Mikron, so'ng Balujistonni egallashga muvaffaq bo'ldi. 1216-yili G'azna, G'ur, Bomiyon yerlari qo'lga kiritildi, Sulton Muhammad Xorazmshoh davlati Sind daryosi bo'yigacha cho'zilib, bevosita Hindiston bilan chegaradosh bo'lib qoldi. 1217-yilga kelib Sulton Muhammad Xorazmshoh davlati tarkibiga Fors Iroqi (Iroqi Ajam), Mozandaron, Arron, Ozarbayjon, Shirvon, Fors, Kirmon, Mikron, Mang'ishloq, Seyiston, G'ur, G'azna, Bomiyon yerlari, jumladan, Kaspiy dengizidan Hindistongacha bo'lgan hududlar kirgan. Sulton Muhammad Xorazmshoh qo'shinining umumiy soni 400 000 nafarga yetgan va mo'g'ullar qo'shiniga nisbatan ikki baravar ko'p bo'lgan. Raqibni tor-mor etishni yakunlash zaxira rolini bajaruvchi maxsus qism (xofiya) zim-masiga yuklatilgan. Qal'alarga hujum qilishda tosh irg'ituvchi (katapulta – manjaniqlar, qa-mal mashinalari (dabbobat), “toshbaqalar”, odimlovchi minoralar (mataris), devorteshar mashinalar (jamoluqot) va shotilar (narvon, salolim)dan foydalanilgan. Muhammad Xorazmshoh davrida mudofaa-ga katta e'tibor qaratilgan. Mamlakat chegaralarida burjli devorlari tosh va xom g'ishtdan qilingan shahar-qal'alar bo'lgan.



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Siyosiy vaziyat deganda nimani tushunasiz?
2. Xorazmshohlar davlat boshqaruvi tizimi qanday shakllangan edi?
3. XIII asrda Xorazmda siyosiy vaziyat qanday edi?
4. Xorazmshohlar davlati chegaralarini xaritadan ko'rsating

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

36 listdan iborat 8-sinf O'zbekiston tarixi fanidan I chorak konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**